

XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON SUD TIZIMIDAGI HUQUQIY TIZIM YANGILANISH JARAYONLARINING IJTIMOY HAYOTGA TA'SIRI

Karimova Go'zalxon Rustamjon qizigozalphonrustamovna@gmail.com

QDU 70220303 – ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi

(tarix) mutaxassisligining 2-bosqich magistranti.

Karimov Qahramon Sodiqovich

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent.

qahramonjob876@umail.uz<https://doi.org/10.5281/zenodo.20336311>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida amalga oshirilgan sud-huquq tizimidagi o'zgarishlarning ijtimoiy hayotga ta'siri tahlil qilingan.

Muallif Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati doirasida joriy etilgan ma'muriy-huquqiy islohotlar, xalq sudlari faoliyati, harbiy-sud komissiyalari va politsiya organlarining vakolatlarini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, arxiv hujjatlari asosida mahalliy aholiga nisbatan qo'llangan ma'muriy jazolar hamda mustamlakachilik boshqaruvining huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida sud tizimidagi yangilanishlarning mahalliy aholi huquqiy madaniyati va huquqiy ongiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatgani xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiston, sud tizimi, qozilik sudi, biylar sudi, Chor Rossiyasi, mustamlakachilik siyosati, ma'muriy jazo, huquqiy islohotlar, politsiya nazorati, huquqiy madaniyat, arxiv hujjatlari.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние изменений в судебно-правовой системе Туркестана конца XIX – начала XX века на общественную жизнь.

Автор рассматривает административно-правовые реформы, внедрённые в период колониальной политики Российской империи, деятельность народных судов, военно-судебных комиссий и полномочия полицейских органов. На основе архивных документов исследуются административные наказания, применяемые к местному населению, а также правовые механизмы колониального управления. В результате исследования сделан вывод о том, что преобразования в судебной системе оказали как положительное, так и отрицательное влияние на формирование правовой культуры и правосознания местного населения.

Ключевые слова: Туркестан, судебная система, казийский суд, бийский суд, Российская империя, колониальная политика, административное наказание, правовые реформы, полицейский контроль, правовая культура, архивные документы.

Annotation. This article analyzes the impact of judicial and legal reforms implemented in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries on social life.

The author examines the administrative and legal reforms introduced within the framework of the colonial policy of the Russian Empire, the activities of people's courts, military judicial commissions, and the authority of police institutions. Based on archival documents, the study investigates administrative punishments imposed on the local population and the legal mechanisms of colonial governance. The research concludes that the transformations in the judicial system had both positive and negative effects on the development of legal culture and legal consciousness among the local population.

Keywords: *Turkestan, judicial system, qadi courts, biy courts, Russian Empire, colonial policy, administrative punishment, legal reforms, police control, legal culture, archival documents.*

Kirish.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ajdodlarimizdan qolgan bebaho madaniy meros, ma'naviy boyliklar va milliy urf-odatlarini, eng muhimi, real tariximizni o'rganishga bo'lgan yo'l butunlay ochildi. O'zbekiston xalqining jahon hamjamiyatida o'zining buyuk o'tmishi bilan g'ururlanib, boshini baland ko'tarib yurishi uchun Vatanimiz tarixiy jarayonlarini qayta tiklash hamda uni haqqoniy tarzda yoritib berish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas talabidir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur". Shunday ekan, ushbu dolzarb vazifani chuqur mas'uliyat bilan hayotga tatbiq etish biz, yosh tarixchi olimlarning asosiy maqsadimiz bo'lishi lozim.

Asosiy qism.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda mahalliy qatlam uchun joriy qilingan ma'muriy-huquqiy o'zgarishlar davrida ularning an'anaviy va konservativ qarashlari har jihatdan inobatga olindi. Turkistonning tub joyli aholisi, asosan, saylov tamoyillari asosida modernizatsiya qilingan, ammo amaliyotda mutlaq mustamlaka idorasi nazorati ostida faoliyat yuritgan xalq sudlari (qozilar va biylar) tizimiga tayanar edi. O'lka xalqi va chorizm ma'muriyati o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar keskinlashgan pallalarda, imperiya hokimiyati tomonidan joriy etilgan harbiy-dala, maxsus va favqulodda sud strukturalari bilan bir qatorda, hukumatning geosiyosiy manfaatlarini mutlaq himoya qiluvchi boshqa sud instansiyalari ham jadal ishga solingan.

Mustamlaka sud idoralari hamda an'anaviy qozilik sud tizimi o'rtasidagi aloqalar ayrim o'rinlarda muayyan masalalarni birgalikda hal etishga qaratilgan bo'lsa, aksariyat vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi va qarama-qarshi xususiyat kasb etgan.

Tadqiqotchi Q.Karimovning izlanishlariga ko'ra, "Turkiston o'lkasi general-gubernatorligi ma'muriy markaz bo'lgan Toshkent shahridan turib boshqargan va bu orqali Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda siyosiy-iqtisodiy qulaylik va ustunlikka ega bo'lgan.

Dastlab mahalliy sudlarning "qoloqligi" zo'r berib targ'ib etilgan va ming yillar davomida shakllangan sud-huquqi tizimi isloh qilinib, yangicha tartiblar joriy qilingan. Lekin ularni butunlay yo'q qilishga erishilmadi va bu o'tgan asrning birinchi choragida Turkistonda sovet hukumati o'rnatilgandan so'ng, amalga oshirildi".

Bundan tashqari, Turkiston hududida jinoiy ishlarni ko'rishda to'g'ridan-to'g'ri "harbiy nizomlar kodeksi"ga tayanib ish ko'radigan muvaqqat harbiy-sud komissiyalari ham mavjud edi. Ushbu maxsus komissiyalarning vakolat doirasi ma'muriyat xodimlarining hayotiga tajovuz qilish, huquqbuzarliklar, rus ko'chmanchilari tomonidan amalga oshirilgan bosqinchiliklar va o'ta og'ir jinoyat turlari, qolaversa, ruslar hamda mahalliy aholi ishtirokidagi "davlat boshqaruvi va barqarorlikka qarshi qaratilgan isyonkorona qilmishlar"ni qamrab olgan. Mazkur sudlar sudlanuvchi sifatida jalb qilgan shaxslarning keyingi qismati butunlay harbiy amaldorlarning sub'ektiv qarorlariga bog'liq edi.

O'lkaning mahalliy aholisi o'zlarining ko'p asrlik milliy-diniy qadriyatlariga mutlaqo zid, huquqiy mexanizmlari murakkab va tushunarsiz bo'lgan ushbu sud jarayonlarida o'zlarini to'laqonli chorasiz sezganlar.

Mustamlaka hokimiyati bilan til biriktirgan ayrim xalq sudyalarining shaxsiy manfaatlar ketidan quvishi va poraxo'rlikka berilishi esa oddiy xalqning g'azabini alangalatib, mavjud mustamlaka idoralariga bo'lgan ishonchsizlik hamda nafrat hissini yanada chuqurlashtirgan.

Jazolash mezonlari nihoyatda keng va sub'ektiv mezonlar asosida sharhlab kelingan: chunonchi, "itoatsizlik", "qo'pol munosabatda bo'lish", "hurmatsizlik namoyon etish" yoki "buyruqlarni ijro etmaslik" kabi vajlar bunga yaqqol misoldir. Politsiya tuzilmalari xodimlari hamda politsiyaviy funksiyalar yuklatilgan amaldorlar shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, o'z xohishlariga ko'ra istalgan jazo chorasini belgilash vakolatiga ega bo'lganlar. Rossiya imperiyasining jinoiy-huquqiy qonunchilik me'yorlariga asosan, aynan mazkur toifadagi ma'murlar dastlabki surishtiruv va tergov jarayonlarini muvofiqlashtirgan. O'sha davrning huquqiy doktrinasiga ko'ra, ayblanuvchining o'z qilmishiga iqrор bo'lishi eng birinchi darajali rasmiy dalil hisoblangan bo'lib, qolgan barcha isbot-dalillar yordamchi xarakterga ega edi.

Shu sababli, politsiya xodimlari zaruriy iqrорlik ko'rsatuvlarini qo'lga kiritish maqsadida g'ayriinsoniy va shafqatsiz usullarni qo'llashdan tap tortishmagan. Dastlabki tergov bosqichidagi ayovsiz jismoniy tazyiqlar va qiynoqlarga bardosh bera olmagan, jinoyatga mutlaqo aloqador bo'lmagan shaxslar ham o'z zimmalariga yuklatilgan soxta ayblovlarni tan olishga majbur etilgan.

Ma'muriy-byurokratik idoralar va politsiya mahkamalari hibsga olinganlarni saqlash muassasalari faoliyati ustidan qat'iy nazoratni yo'lga qo'ygan. O'lkaning barcha markaziy shaharlarida, shuningdek, chekka hududlarida ham harbiy hamda fuqarolik idoralari tasarrufidagi penitensiar muassasalar (qamoqxonalar) tarmog'i tashkil etilgan. Turkiston hududida turmalarni barpo qilish va ularni ta'minlash xarajatlarini qoplash uchun chorizm xazinasini hisobidan har yili o'rtacha 70–80 ming rubl atrofida mablag' ajratib borilgan.

Chor Rossiyasi tomonidan kiritilgan sud tizimidagi islohatlarning ta'sirini hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston milliy arxivida saqlanib kelayotgan arxiv hujjatlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan, O'zRMDA I-18-fond 96-ro'yxat, 11671-ishni ko'zdan kechirganimda quyidagi hujjatni o'qib chiqdim va tahlil qildim. Ushbu arxiv hujjatida quyidagilar yozilgan edi:

О наложении административного взыскания на туземца Ахроркула Хасанбаева за нарушения обязанности о рабоч. 25 июня 1908.

13 октября на местах за нарушение обязательного постановления моего от 18 декабря 1907 года. Обь обеспечение нормального отдыха служащих в торговых заведениях, складах и конторах, то есть за неисполнение законных распоряжений требований правительственных полицейских властей, каково проступок предусмотрен 29 статьи устанавливала о наказаниях налогов мировых судей оштрафовывается мною на 5 рублей.

Полицейстор города Самарканда.

Tarjimasi:

Ish majburiyatlarini buzganligi uchun mahalliy aholi vakili Axrorqul Hasanbayevga nisbatan 1908-yil 25-iyun sanasida ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida.

13-oktabr kuni joylarda 1907-yil 18-dekabrdagi mening majburiy qarorimni buzganligi uchun — ya'ni savdo muassasalari, omborlar va idoralarda xizmat qiluvchilarning normal dam olishini ta'minlash haqidagi talabni bajarmaganligi, boshqacha aytganda, hukumatning politsiya organlari tomonidan berilgan qonuniy buyruq va talablarni ijro etmaganligi uchun — bu qilmish mirovoy sudyalari tomonidan solinadigan jazolar to'g'risidagi nizomning 29-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik hisoblanib, men tomonimdan 5 rubl miqdorida jarimaga tortiladi.

Samarqand shahri politsmeysteri.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Mazkur hujjat 1908-yilga taalluqli bo‘lib, u Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o‘lkasida amal qilgan ma‘muriy-boshqaruv tizimi doirasida rasmiylashtirilgan. Bu davrda mahalliy aholi (“tuzemliklar”) Rossiya imperiyasi qonunlari va politsiya organlari tomonidan qat’iy nazorat ostida bo‘lgan.

Axrorqul Hasanbayevga nisbatan qo‘llangan ma‘muriy jazo quyidagi asosga ega:

1907-yil 18-dekabrda majburiy qaror talablarini bajarmagan.

Ushbu qaror savdo do‘konlari, omborlar va idoralarda ishlovchi xizmatchilarning mehnat va dam olish tartibini tartibga solishga qaratilgan.

Qarorni bajarmaslik politsiya organlarining qonuniy talablarini mensimaslik sifatida baholangan. Huquqbuzarlik mirovoy sudyalari tomonidan solinadigan jazolar to‘g‘risidagi nizomning 29-moddasi asosida baholangan. Mazkur modda kichik huquqbuzarliklar uchun jarima belgilash vakolatini bergan. Politsmeysterning o‘zi jarima tayinlagani ma‘muriy-politsiyaviy vakolatlarning keng bo‘lganidan dalolat beradi.

Hujjatda “tuzemliklar” atamasining ishlatilishi mahalliy aholini kamsituvchi mustamlakachilik terminologiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Jarima miqdori – 5 rubl – o‘sha davr sharoitida oddiy mahalliy savdogar yoki ishchi uchun sezilarli moliyaviy “yuk” bo‘lgan.

Mehnat munosabatlari ustidan politsiya nazorati kuchli bo‘lib, iqtisodiy faoliyat erkinligi cheklangan.

Mazkur holat Chor Rossiyasi ma‘muriyati tomonidan ijtimoiy hayotning eng mayda jihatlarigacha aralashilganini ko‘rsatadi. Politsiya faqat jamoat tartibini emas, balki mehnat rejimi va savdo faoliyatini ham nazorat qilgan. Mahalliy aholi huquqiy jihatdan teng bo‘lmagan, politsiya qarorlariga bo‘ysunishga majbur bo‘lgan.

Axrorqul Hasanbayevga nisbatan qo‘llangan ma‘muriy jazo mustamlakachilik boshqaruv tizimining mohiyatini yaqqol aks ettiradi. Bu holatda:

huquqiy normalar imperiya manfaatlariga xizmat qilgan;

politsiya organlari keng vakolatlarga ega bo‘lgan;

mahalliy aholi ijtimoiy-huquqiy jihatdan cheklangan holatda bo‘lgan.

Mazkur hujjat Turkistonda XX asr boshlarida ma‘muriy-politsiyaviy boshqaruvning real amaliyotini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Xulosa

Odil sudlov tizimidagi yangilanishlar o‘lka aholisining huquqiy qarashlarida qonuniylik, adolat hamda huquqiy majburiyat hissi kabi fundamental tushunchalarning qaror topishiga muayyan darajada turtki berdi. Sud tizimidagi mavjud kamsitishlar, ma‘muriy to‘siqlar hamda poraxo‘rlik illatlari aholi huquqiy ongining tizimli rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, turli huquqiy ixtiloflarni aynan sud mexanizmlari vositasida hal qilish tajribasining keng yoyilishi odamlarning huquqiy faollik darajasini oshirishga ijobiy xizmat qildi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur davrda sud tizimida kechgan o‘zgarishlar murakkab va qarama-qarshi xususiyatga ega jarayon bo‘lib, u mahalliy aholining huquqiy madaniyatini shakllantirishda bir-birini inkor etuvchi ijobiy hamda salbiy omillar majmui orqali ta‘sir o‘tkazganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 19-yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan.

2. Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Karimov Q.S. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda qozilar faoliyati: shariat va mustamlaka huquqi. “Iste’dod ziyo press” nashriyoti. – Namangan, 2024. – 172 b.
4. O‘zRMDA I-18-fond 96-ro‘yxat, 11671-ish